YANGI O‘ZBEKISTONDA TIL TA’LIMIDA YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Komilova Muhabbat Akmal Qizi
Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston davrida til siyosati va ta’lim tizimidagi islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, davlat tilining maqomini mustahkamlash, xorijiy tillarni o‘qitish tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim metodikalarini zamonaviylashtirish borasidagi yutuqlar yoritiladi. Shu bilan birga, til ta’limidagi mavjud muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish yo’llari ham atroflicha tahlil qilinadi. Maqolada xalqaro tajriba va amaliyotlarga asoslangan holda taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, til siyosati, til ta’limi, davlat tili,xorijiy tillar, ta’lim, ta’lim islohotlari, metodika.

Abstract: This article analyzes language policy and educational reforms in the era of New Uzbekistan. In particular, it highlights achievements in strengthening the status of the state language, modernizing the system of foreign language teaching, and updating teaching methodologies. At the same time, the article provides a comprehensive analysis of existing challenges in language education, their causes, and possible solutions. Based on international experience and best practices, the paper also offers several recommendations and proposals for further improvement.

Key words: New Uzbekistan, language policy, language education, state language, foreign languages, education, educational reforms, methodology.

Аннотация: В данной статье анализируются языковая политика и реформы в системе образования в эпоху Нового Узбекистана. В частности, освещаются достижения в укреплении статуса государственного языка, модернизации системы преподавания иностранных языков и обновлении методик обучения. Одновременно подробно рассматриваются существующие проблемы в языковом образовании, их причины и пути устранения. На основе международного опыта и практики в статье представлены предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию данной сферы.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, языковая политика, языковое образование, государственный язык, иностранные языки, образование, образовательные реформы, методика

Til-bu millatning ruhi,madaniyati,tafakkuri va tarixining timsolidir.Har bir davlatning mustaqilligi va suvereniteti,eng avvalo,o’z davlat tilining huquqiy maqomi, nufuzi va hayotdagi amaliy qo’llanilishi darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mustaqillik yillarida, ayniqsa, Yangi O‘zbekiston davrida til siyosati va ta’limi borasida tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlat tilining nufuzi yanada keng qamrovga olinmoqda, chet tillarini o‘qitish tizimi tubdan isloh qilinmoqda, ko‘p tilli ta’lim modeliga o‘tish tajribalari sinovdan o’tkazilmoqda. Mustaqillik yillarida, ayniqsa, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim tizimini isloh qilish,

jumladan, til ta’limini zamon talablari asosida takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmqda. Til –nafaqat aloqa vositasi, balki milliy o‘zlik, madaniyat va taraqqiyot ko‘zgusi hisoblanadi. Shu bois, davlat tilining mavqeini mustahkamlash, xorijiy tillarni o‘rganishni rag’batlantirish hamda ko‘p tillilik madaniyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan til siyosati va ta’lim tizimidagi yangiliklar muayyan natijalarni bergan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishda hali o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Ushbu maqolada til ta’limi sohasida erishilgan yutuqlar, amalga oshirilayotgan islohotlar va uchrayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinadi.

2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respuplikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish va uni rivojlantirish bo‘yicha” farmoni e’lon qilindi. Bu farmon asosida davlat tilining huquqiy asoslarini mustahkamlash, davlat idoralarida to‘liq qo‘llanilishini ta’minlash, hujjat yuritishni o‘zbek tilida olib borish kabi muhim vazifalar belgilanadi. Yangi O‘zbekistonda chet tillar, ayniqsa, ingliz tilini o‘rgatishga katta e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalaridan tortib oliy o’quv yurtlarigacha chet tilini o’qitish bo’yicha yangicha yondashuvlar joriy etildi. Xususan, 2021-yilda “Chet tillarni o’rganishni ommalashtirish” bo’yicha Prezident qarori qabul qilindi. Xalqaro sertifikatlarga ega bo’lgan ingliz tili o’qituvchilariga qo’shimcha ustama va imtiyozlar berilmoqda. Shu bilan birgalikda, zamonaviy darsliklar, mobil ilovalar, onlayn platformalar keng joriy etilmoqda. Shuningdek, ba’zi maktablarda hamda litseylarda o’zbek ,rus ,ingliz tillarida dars mashg’ulotlari olib boriladigan sinflar tashkil etildi. Bu islohotlar nafaqat xorijiy tillarni o’rganishga, balki bolalarning muloqot madaniyati va fikrlash salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda .Shu bilan birga, zamonaviy texnalogiyalar orqali til o’rganish imkoniyatlari kengaymoqda. Hozirgi kunda, foydalanuvchilar tomonidan so’ralayotgan til o’rganish platformalari qulayligi hamda samaradorligi bilan boshqa sayt va ilovalardan farqli o‘laroq keng qamrovda foydalanilmoqda . Misol tariqasida “Bilimdon” platformasi . Ushbu platforma orqali o‘rganuvchi nafaqat grammatikani, balki tushunish, gapirish, yozish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Platforma har qanday vaqtda, istalgan joyda til o‘rganish imkonini beradi. Bu ayniqsa, band odamlar uchun juda foydalidir. Shu bilan birgalikda, platforma orqali boshqa o‘rganuvchilar bilan fikr almashish, mashqlarni birgalikda bajarish va til muhitida bo‘lish imkonini beradi. Shuningdek, bu va bu kabi platformalar mustaqil hamda tizimli o‘rganish imkoniyatining mavjudligi, o‘quvchilarning til bilish darajasini bosqichma-bosqich shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu turdagi platformalarning imkoniyatlari ta’lim jarayoning innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilishiga xizmat qiladi va motivatsion jihatdan rag’batlantiruvchi holatga keltiradi. Olib borilayotgan islohotlardan yana biri shundaki, 2025-yildan boshlab, oliy ma’lumotli va o‘z mutaxassislik fanlaridan davlat hamda xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga belgilangan ish stavkasiga qo‘shimcha ravishda 50 foiz miqdorda ustama to‘lanishi nazarda tutilgan. Shu tariqa, xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga ustama to‘lanishi ularning mehnatini rag’batlantirishga va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Hududlar bo‘yicha til o‘qituvchilar malakasi bo‘yicha katta tafovut mavjud. O‘zbekiston Respuplikasida ham umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Biroq, respublikaning chekka va olis hududlarida o‘qituvchilar yetishmovchiligi hali-hanuz dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bu holat ta’lim sifati, o‘quvchilarning bilim darajasi va teng imkoniyatlar talabiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Chekka hududlarda o‘qituvchilar tanqisligini bartaraf etish ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir. Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda har bir chekka hudud uchun mahalliy kadrlar zaxirasini yaratish, til sohasida esa har bir tuman uchun alohida

“native speakerlar va leaderlar”ni maqsadli yo‘naltirish. Aynan chekka hududda ishlayotgan o‘qituvchilarning muvaffaqiyatli tajribalarini ommaviy axborot vositalarida targ’ib etish. “Eng faol chekka hudud o‘qituvchisi” kabi tanlovlar tashkil etish va g’oliblarni ham moddiy ham ma’naviy rag’batlantirish ishlarini amalga oshirish orqali yoshlar orasida pedagog kasbiga nisbatan ijobiy tassavur yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur strategiyalarni amaliyotda joriy etish orqali davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyatlar, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik qilinishi bilan bir qatorda rivojlanishning yangi pog’onasini zabt etishda ham talaygina ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, chekka hududlarda o‘qituvchilar tanqisligi muammosi nafaqat pedagogik kadrlar siyosatini qayta ko‘rib chiqishni, balki ta’lim tizimining hududiy adolat tamoyiliga asoslangan holda isloh etilishini taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarda til o‘rganishga nisbatan ichki qiziqish past, uni faqat imtihon topshirish yoki majburiyat sifatida qabul qilish holatlari ko‘p uchraydi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun o quv dasturlarida tilni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga asoslangan topshiriqlarni ko‘paytirish. Til o‘rganishning foydasi haqida doimiy targ’ibot va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish(grantlar, tanlovlar,chet elda o’qish imkoniyatlari). Shu bilan birgalikda, o‘quvchilarning individual qiziqishlariga mos mavzular asosida darslar tashkil etish. Bu kabi tabiiy til muhitining yetishmasligi, o‘quvchilar o‘rganilayotgan tilni hayotda amaliy qo‘llash imkoniytiga ega emas. Amalda targ‘ib etish uchun til klub va suhbat guruhlarini tashkil etish. Onlayn muloqot platformalari (pen-pal loyihalari,til almashinuvi)kabi ilovalardan foydalanish o‘quvchining fanga yanada chuqurroq intilishiga sabab bo’ladi. Shu va shu kabi muammolarni bartaraf etish uchun davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, pedagogik jamoalarning malaka oshirishi, texnologik innovatsiyalarni joriy etishlishi markaziy o‘rinni egallaydi. Til o‘rganish-bu faqat bilim emas, balki madaniyatlararo muloqot vositasi ekanini anglash, o‘rgatish jarayonini yanada sifatli va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi.

Til-bu jamiyatni birlashtiruvchi vosita, uni asrash va rivojlantirish har bir fuqaroning burchidir. Shu bois,til ta’limiga jiddiy va tizimli yondashuv, doimiy kuzatuv va pedagogik innovatsiyalar zarur. Til ta’limini yanada sifatli,ommabop va adolatli qilish orqali biz nafaqat o‘z milliy qadriyatlarimizni asraymiz, balki global raqobatga bardosh bera oladigan yangi avlodni tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respuplikasi Prezidentining farmoni,2019-yil 21-oktabr,PF-5850-Davlat tilini rivojlantirish konsepsiyasi haqida.
2. O’zbekiston Respuplikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi2022-2026 yillarda yangi O’zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to’g’risidagi PF-60-son Farmoni.
3. O’zbekiston Respuplikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-martdagi ‘’O’qituvchilarning rag’batlantirish tizimini takomillashtirish to’g’risida’’gi qarori.
4. O’zbekiston Respuplikasi Xalq ta’limi vazirligi.’’Ta’lim sohasida kadrlar bilan ta’minlash holati va istiqboldagi rejalar’’.-T: 2023
5. Qurbonov.A.(2021).Chekka hududlarda ta’lim sifati va pedagogic kadrlar muammosi(O’zbekiston pedagogik jurnali, N.3, 45-52-betlar